

**UMUMIY TILSHUNOSLIKNING PREDMETI, BAHS MAVZULARI  
VA ASOSIY VAZIFALARI**

*Andijon davlat chet tillari instituti  
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi  
va tarjimashunoslik fakulteti sharq tillari  
(xitoy tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi  
Jo'rayeva Ziyoda Aribxo'ja qizi  
Ilmiy maslahatchi: Zaynobiddinova I.M*

**Annotatsiya:** Ma'naviy boyliklar orasida tilshunoslik ilmida to'plangan bilimlar muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk tilshunoslari bo'ladi. Ular o'z yurti va xalqining tili haqidagi fikrlarini tilshunoslikka doir asarlarida o'rta tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bayroq sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishidagi tilshunoslik bilimlari katta ahamiyat kasb etadi. Avvalo, tilshunoslik o'zi nima?

**Kalit so'zlar:** *tilshunoslik, tilning ta'rifi, idealistik yo'nalish, materialistik yo'nalish, til va jamiyat, til va tafakkur, semiologik tizim.*

**Аннотация:** Среди духовных богатств, собранных в науке языкознании Знания важны. Великий каждой эпохи будут лингвисты. Они о языке своей страны и народа выражали свои мысли в своих работах по языкознанию. Появляясь как флаг, ведущий людей к великим целям к идеологии определенного периода идея знание языкознания в этом процессе имеет большое значение. Прежде всего, что такое лингвистика?

**Ключевые слова:** *языкознание, определение языка, идеалистический подход, материалистический подход, язык и общество, язык и мышление.*

**Annotation:** The knowledge gained in the science of linguistics occupies an important place among spiritual wealth. There are great linguists of every era. They expressed their thoughts about the language of their country and people in their works on linguistics. Linguistic knowledge is of great importance in the transformation of ideas that appear as a flag leading the people to great goals into the ideology of a certain period. First of all, what is linguistics?

**Keywords:** *linguistics, definition of language, idealistic orientation, materialistic orientation, language and society, language and thought, semiological system.*

Umumiy tilshunoslikning predmeti tilning kelib chiqishi, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlari va jamiyatdagi funksiyalarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu fan doirasida til va tafakkur, til va jamiyat munosabatlari, shuningdek, tilning universal

xususiyatlari asosiy bahs mavzularini tashkil etadi. Jahon tilshunoslari — F. de Sossyur, N. Xomsky va L. Blumfeld kabi olimlar tilni tizim sifatida talqin qilib, uning nazariy asoslarini yaratgan. Rus olimlari A. Potebnya va I. A. Boduen de Kurtene tilning psixologik hamda fonologik qonuniyatlarini chuqur o'rgangan. O'zbek tilshunoslari A. Madvaliyev, A. Nurmonov va A. Hojiyev esa umumiy til nazariyasining turkiy tillarda namoyon bo'lishini ilmiy asoslab berganlar.<sup>1</sup>

Bashariyat milodiy XX asr bilan xayrlashib, uchinchi ming yillikka qadam qo'ydi. Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi.<sup>2</sup> Odamzod o'zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko'p yangiliklar yaratdi. Ma'naviy boyliklar orasida tilshunoslik ilmida to'plangan bilimlar muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk tilshunoslari bo'ladi. Ular o'z yurti va xalqining tili haqidagi fikrlarini tilshunoslikka doir asarlarida o'rta tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bayroq sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishidagi tilshunoslik bilimlari katta ahamiyat kasb etadi.<sup>3</sup> Avvalo, tilshunoslik o'zi nima, uning markaziy masalalaridan biri nima, degan masalaga to'xtab o'taylik. U insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Tilshunoslikning markaziy masalalaridan biri til va uning ta'rifidir. Hozirgacha til ikkita bir-biriga zid dunyoqarash-idealistik va materialistik nuqtayi nazardan ta'riflanadi. Ongni birlamchi, materiyani ikkilamchi deb biluvchi idealistik yo'nalishdagi olimlar tilga quyidagicha ta'rif berishadi: "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir" (F. De Sosyeyur). "Til-odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir" (L. Blumfil'd). "Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir" (B. Grosse). Bu ta'riflarning birortasi tilning to'liq ta'rifi emas, chunki ular tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydi. Olimlar tilning kishilik jamiyatida tutgan o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatib, til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir, deb ta'riflaydilar. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ehti-yojlarini to'la-to'kis bajaradi, garchand, til o'zgaruvchan hodisa bo'lsada, u faqat o'zining ichki obyektiv qonunlari asosida rivojlanadi. Til o'ziga xos semiologik tizim bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan-avlodga madaniy-tarixiy an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi. Buyuk o'zbek demokrat ma'rifatparvar shoiri Avaz O'tar aytganidek, tilvositali robitali olamiyondir. Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o'rni, ichki tuzilishi-tilning tasnifi, uni tahlil qilish usullari va shu kabi masalalarni o'rganadigan fandir.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> O'rinboyev.B., Musayev.A., Umumiy tilshunoslik — Toshkent: Oltin kitob, 2013.

<sup>2</sup> Равшанхўжа.Р., Умумий тилшунослик — Тошкент: Дарслик, 2013

<sup>3</sup> Усмонов.С., Умумий тилшунослик — Тошкент: Ўқитувчи, 1972

<sup>4</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.

Kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilni tilshunoslik fani o'rganadi. Tilni o'rganuvchi tilshunoslik fanining uch tarmog'i mavjud: Kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilni tilshunoslik fani o'rganadi. Tilni o'rganuvchi tilshunoslik fanining uch tarmog'i mavjud:

1. Ekstralingvistika (ekstra-tashqi, lingvistikatilga xos) xususiyatlarni o'rganadi. Ekstralingvistika bir necha tarmoqlarga ajraladi:

A. Sotsiolingvistika. Bunda tilning tabiati va ijtimoiy vazifasi o'rganiladi.

B. Mentalingvistika. Bunda til va tafakkur tilning mazmun tomoni, nutq faoliyati, til birliklarining matn va sharoit bilan alogasi o'rganiladi.

2. Intralingvistika. Bunda tilning ichki tizimi, uning birliklari va kategoriyalari, tilning fonologik, leksikologik va grammatik qurilishini o'rgatadi.

3. Komparativistika (qiyosiy). Tilshunoslikning bu sohasio'z navbatida uchga bo'linadi:

A. Qiyosiy tilshunoslik. Tilshunoslikning bu sohasi o'z navbatida qiyosiy-tarixiy va chog'ishtirma tilshunoslikka bo'linadi. Qiyosiy - tarixiy tilshunoslik bir-biriga qarindosh bo'lgan tillarni o'rganadi. Turli tizimdagi tillarni qiyosiy o'rganish chog'ishtirma til-shunoslik obyektidir.

B. Areal (maydon) tilshunoslik. Dunyodagi 2976 tilning tarqalish doirasi, tillar xaritasi, mamlakatlarni til tomondan tasvirlash areal tilshunoslik predmeti sanaladi.

V. Tipologik tilshunoslik. Tipologiya tillarning qurilishi-dagi umumiy, universal holatlarni tekshiradi. Bunda barcha tillar, ularning qarindosh yoki qarindosh emasligidan qat'iy nazar o'rganilaveradi.<sup>5</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rinboyev.B., Musayev.A., Umumiy tilshunoslik — Toshkent: Oltin kitob, 2013.
2. Равшанхўжа.Р., Умумий тилшунослик — Тошкент: Дарслик, 2013
3. Усмонов.С., Умумий тилшунослик — Тошкент: Ўқитувчи, 1972
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. — Тошкент: Академнашр, 2012.
5. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И.Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Ўқитувчи, 1981.

<sup>5</sup> Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов И.Тилшуносликка кириш. — Тошкент: Ўқитувчи, 1981.